

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAHSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**


**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

GIDRAVLIKA VA GIDROPNEVMOYURITMALAR

fanidan

K U R S I S H I

uslubiy qo‘llanma



Tashkent -2016

Tuzuvchilar: A.A. Karimov, A.A. Shokirov, A.A. Mukolyans,
O‘.E. Boboqulov.

“Gidravlika va gidropnevmoymoyuritmalar” fanidan kurs ishlarini bajarish
bo‘yicha uslubiy qo‘llanma: ToshDTU, Toshkent, 2016. – 68 b.

Ushbu qo‘llanma mualliflarning ToshDTU va Toshkent shahridagi boshqa o‘quv yurtlarida o‘qilgan ma‘ruzalari asosida tuzildi. Qo‘llanmada «Gidravlika va gidropnevmoymoyuritmalar» fanining asosiy qonunlarini va shu qonunlarning hayotda amaliy qo‘llanishi bo‘yicha kurs ishlarining o‘tkazilishida eng sodda nazariy bilim bilan ularni kurs ishlariga qo‘llanishi va hisoblash usullari batafsil ko‘rsatilgan.

Ta‘lim yo‘nalishi: 5111000- Kasb ta‘limi 5310600-Yer usti Transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (qishloq xo‘jalik mashinalari), 5111000- Kasb ta‘limi (5320200-Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishni jihozlash va avtomatlashtirish), 5310500- Avtomobilsozlik va traktorsozlik, 5310600- Yer usti transport tizimlari va ularning ekspluatatsiyasi (qishloq xo‘jalik mashinalari), 5320300- Texnologik mashinalar va jihozlar (oziq-ovqat sanoati), 5320300- Texnologik mashinalar va jihozlar (sovutish mashinasozligi), yo‘nalishlari uchun tuzilgan hamda shu yo‘nalishlarga mos bo‘lgan ta‘lim yo‘nalishlari talabalari va o‘qituvchilarining foydalanishlari uchun mo‘ljallangan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga binoan nashrga tayyorlandi.

Taqrizchilar: **S.I.Xudoyqulov** – Toshkent irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tekshirish instituti yetakchi xodimi, t.f. d.

O.X. Nizomov – Toshkent davlat texnika universiteti “Gidravlika va gidroenergetika” kafedrasida dotsenti, t.f.n.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2016

KIRISH

Ishlab chiqarishni jadallashtirishda, qurilish hajmini kengaytirishda, yuqori ish unumdorligini oshirish shart-sharoitini yaxshilashda, mashinasozlikda, texnikada, mexanizimlarni va sovutish apparatlarini, ish unumdorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu mashina va apparatlarning ishlashida ishchi muhitni ko'chirish alohida ahamiyatlidir.

Mashinalar, nasoslar, ventilyator, havo purkagich, kompressor va boshqalar bosim hosil qiluvchi va muhitni uzatuvchi turlarini aniqlaydi. Aytilgan mashinalar gidravlik dvigatel va gidro-uzatgichlar gidravlik mashinalar sinfini tashkil qiladi.

Gidravlik mashinalar deb, dvigatelning mexanik energiyasini suyuqlikning ko'chishi, balandlikka ko'tarish transportirovka qilishdagi energiyani ta'minlovchi qurilmalar yoki suyuqlik energiyasini mexanik energiyaga qurilmalar (gidravlik trubinalar)ga aytiladi.

Giravlik mashinalar qatoriga alohida maxsus qurilmalar kiradi. Ular suyuqlikni yuqoriga ko'tarish, ko'chirish uchun xizmat qiladi. Ular quyidagilar:

- a) Gidravlik taranlar, ishlash jarayonini suyuqlikda hosil qilingan gidravlik zarbaga asoslangan bosim xosilasidan iborat.
- b) Suv oqimchali nasoslar, suyuqlik oqimining kinetik energiyasini o'zgarishiga asoslangan qurilma bo'lib, suvni yuqoriga ko'tarish va haydashga ishlaydi.
- c) Erliftlar – havo oqimini qudiq ichiga haydash bilan quduqdagi suyuqlik naporini oshirish yo'li bilan emulyatsiyalangan suyuqlikni balandlikka ko'taruvchi qurilma.

Gidromashinalar harakatlanuvchi turli ish qismlari yordamida suyuqliklarga energiya beradi va bu energiyadan turli maqsadlarda foydalaniladi yoki suyuqlik energiyasi boshqa mexanizmlarning ish qismlarini harakatga keltiradi.

Gidromashinalar texnikaning suyuqlik va gaz bilan ishlaydigan turli qismlarida keng qo'llaniladi.

ASOSIY SHARTLI BELGILASHLAR

Q – nasos, unimdorligining sarfi

P, P_d, P_s – to‘liq, dinamik va statik bosimlar tegishlicha

H – napor

N –quvvat

$\mathcal{G}_1, \mathcal{G}_2$ – absolyut, nisbiy va qochma tezlik oqim uchun

e_{1g}, e_{2g} –ishchi g‘ildirakda kirish va chiqishdagi absolyut tezlik proyeksiyalari

b, D –parrakli nasosning ishchi g‘ildirakdagi kengligi va diametri

R –ishqalanish kuchining oqimdagi solishtirma ishi

V – solishtirma hajm

U –suyuqlik oqimining solishtirma ichki energiyasi

$h_w, \Delta P_w$ –napor va bosim yo‘qolishi

d – quvur tizimining diametri

q – issiqlik miqdori, suyuqlikning bir birlik massasiga mos keluvchi miqdor

γ – solishtirma og‘irlik

ρ – zichlik

ω – ko‘ndalang kesim yuzasi

ω_i – burchak aylanish chastotasi

ξ – mahalliy qarshilik koeffitsiyenti

G – tezlik aylanishlari (sirkulyatsiya)

β_1, β_2 –tegishlicha ishchi g‘ildiraklarning kirish va chiqishdagi kuraklar qurilmasining burchaklari

$\varphi = e_g / \mathcal{G}$ – oqimning burilish koeffitsiyenti

$\psi = P / P_d$ –bosim koeffitsiyenti

1. NASOSLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR

Nasoslar. Suyuqlikning bosimi va energiyasini oshirish evaziga suyuqlikni haydaydigan gidravlik mashinalarga ***nasoslar deb ataladi.***

Nasoslarni elektro dvigatel (ED)lar yordamida harakatga keltiriladi va elektr dvigatelining mexanik energiyasini suyuqlik energiyasiga aylantirib beradi. Suyuqlikning energiyasi esa holat va bosim energiyasidan tashkil topgan-potensial hamda kinetik energiyalardan iborat bo'ladi. SHuningdek, havo va gaz hisobiga suyuqlikni haydaydigan mashina va apparatlarga ham ***nasoslar deb yuritiladi.***

Ishlash qoidasi va konstruktiv tuzilishga ko'ra nasoslarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Parrakli (dinamik), hajmiy va oqimchali nasoslar.

Parrakli nasoslarning ishlash qoidasi hamda parrak bilan suyuqlikning o'zora ta'sirlanishi evaziga suyuqlikni haydashga muljallangan bo'ladi.

Hajmiy nasoslarning ishlash qoidasi esa nasos ishchi kameradagi hajm va bosimning o'zgarishi evaziga suyuqlikni haydashga muljallangan bo'ladi.

Hajmiy nasoslar ikkita katta guruhga ***porshenli*** va ***rotorli nasoslarga*** bo'linadi. Bu nasoslar o'z navbatida bir qancha kichik guruhchalarga bo'linadi.

1. Hajmiy nasos deb – suyuqlik egallagan kamerasi galma-gal kirish va chiqish yo'llari bilan tutashib, hajm davri o'zgarishi natijasida suyuqlik harakatlanadigan nasoslarga aytiladi. Hajmiy nasosning suyuqlik o'tadigan asosiy qismlari - suyuqlik so'rish kanali, kamera va uning berkitgichlari hamda siqib chiqargichlari, suyuqlikning haydash kanallaridan iborat bo'ladi.

Hosil qiladigan bosimning maksimal qiymati, odatda, nasos qismlarini mustahkamligi shartiga va dvigatelning quvvatiga ko'ra erishiladigan maksimal bosim qiymati, maxsus klapan yordamida cheklanadi. Hajmiy rotorli nasoslarning ilgari tanima-qaytarmali va boshqa turlari bor.

2. Parrakli nasoslar – bu, ish qismlari qaytma-burilma harakatlanadigan hajmiy nasoslardir. Bu nasos asosan toza suyuqliklarni uzatishda ishlatiladi.

Nasosning kirishdagi klapanlari korpusiga qo'zg'almas qilib o'rnatilgan. Haydash klapanlari esa, qo'zg'aluvchan parrakka joylashtirilgan. Haydash klapanlari dastak yordamida tebranma harakat

qiladi va porshenli nasosning porsheniga o'xshab ishlaydi. Parrakli nasos 10-20 metr naporda 2-12 m³ suyuqlikni uzatib beradi.

3. Oqimchali nasos – suyuqlik yoki gazni tashqi suyuqlik yoki gazsimon muxit oqimi bilan ergashtirib haydaydigan ishqalanish kuchiga asoslangan.

Oqim turiga ko'ra suyuqlik, gaz va bug' oqimli nasoslarga bo'linadi. Oqimchali nasosda harakatlanuvchi qism bo'lmaydi. Bunday nasoslarning tuzilishi soda, kavitatsiya darajasi kam va FIK 40% gacha bo'ladi. Bu nasoslar ko'pincha uchish apparatlarining yonilg'i bilan ta'minlash tizimlarida, payvandlash gorelkalarda va boshqa tizimlarda keng qo'llaniladi.

Nasoslarning tuzilishi, parametrlari, suyuqlikka energiya berish usuli va boshqa ko'rsatkichlariga qarab turlicha klassifikatsiyalash usullari mavjud. Eng ko'p tarqalgan usul, ularni ishlash prinsipiga qarab klassifikatsiyalashdir. Bunda nasoslar asosan ikkita katta guruhga, dinamik ya'ni, kurakli va hajmiy nasoslarga bo'linadi.

Bu ikki guruh nasoslar deyarli barcha nasoslarni o'z ichiga oladi, lekin bir qancha boshqacha prinsipda ishlaydigan nasoslar bu ikki klassga kirmaydi. Bularga oqimchali nasoslar (uchinchi klass sifatida ajratish mumkin) va boshqa ko'targichlar kiradi.

Kurakli nasoslar yana markazdan qochma, o'qiy, propellerli va uyurma nasoslarga bo'linadi. Tuzilishi va ishlash prinsipi bir xil bo'lgani uchun ventilyatorlarni ham kurakli nasoslar klassiga kiritish mumkin. Ventilyatorlarning ham markazdan qochma, o'qiy va propellerli turlari mavjud.

Kurakli nasoslar ularning bir valida bitta yoki bir nechta ish g'ildiragi o'rnatilishiga qarab bir pog'onali va ko'p pog'onali nasoslarga ajratish mumkin.

Markazdan qochma nasoslar so'rish usuliga qarab bir tomonlama so'ruvchi va ikki tomonlama so'ruvchi nasoslarga bo'linadi.

Hajmiy nasoslar ikki guruhga, porshenli va rotorli nasoslarga bo'linadi. Bu nasoslar o'z navbatida yana bir qancha kichik gruxlarga bo'linadi. Oqimchali nasoslar esa ejektor, injektor va gidroelevatorlarni o'z ichiga oladi. Nasoslarni bunday klassifikatsiyalashga ishlab chiqarishda eng ko'p tarqalgan ikki tur (markazdan qochma va porshenli) nasoslar atrofida barcha nasoslarni gruppalashga intilish asos bo'lgan bo'lsa kerak.

Nasoslarni suyuqlikka bergan bosimining miqdoriga qarab, past bosimli (bosimi 20 m suv ust. gacha), o'rtacha bosimli (bosimi 20 ... 60 m

suv ust. ga teng), yuqori bosimli (bosimi 60 m suv ust. yuqori) nasoslarga ajratish mumkin. Ularning sarfiga qarab past, oʻrta va yuqori sarfli nasoslarga boʻlish mumkin.

Energiyaning nasosga qanday berilishiga qarab, nasoslarni klassifikatsiyalashga intilish ham boʻlgan. Bu qayd etilgan oxirgi uch tur klassifikatsiyalashning har biriga ham barcha mavjud nasoslarni kiritish mumkin boʻlgani bilan, bu uch usul juda katta kamchilikka ega, chunki bu usullarda bir gruppaga porshenli, markazdan qochma, rotorli, propellerli va ishlash prinsipi tamoman bir – biridan farqlanuvchi boshqa nasoslar kirishi mumkin.

Suyuqlikka berilgan energiya turiga qarab klassifikatsiyalash ancha qulaydir. Nasosdan oʻtayotgan suyuqlikka berilgan energiya uch xil boʻlishi mumkin: holat energiyasi (Z); bosim energiyasi $\left(\frac{P}{\gamma}\right)$ va kinetik energiya $\left(\frac{v^2}{2g}\right)$.

Faqat holat energiyasi beruvchi mashinalarga suv koʻtargichlar deyiladi. Agar koʻtarilayotgan suyuqlik faqat suv emas, balki neft, turli moylar va boshqa xil suyuqliklar ham boʻlishi mumkinligini hisobga olsak, bu mashinalarni suyuqlik koʻtargichlari deyish kerak boʻladi.

Bu guruhga suv koʻtarish uchun ishlatilgan barcha qadimgi qurilmalar: charxpalak, chigʻir, Arximed vinti va boshqalar kiradi. Zamonaviy qurilmalardan bu guruhga kiradiganlari qatoriga kam debitli quduqlardan neft chiqaruvchi tortuv qurilmalari, chuqur quduqlardan gaz va havo yordamida suyuqlik (suv, neft) koʻtaruvchi koʻtargichlar kiradi.


Ikkinchi guruhga suyuqlikka bosimni orttirish yoʻli bilan energiya beruvchi nasoslar kiradi. Suyuqlikni porshen bosimi (porshenli nasoslar), aylanuvchi jismlar (rotorli nasoslar), siqilgan havo, gaz yoki bugʻ (pnevmatik suv koʻtargichlar, Gemfri nasosi va h.k.) yordamida siqib chiqarish mumkin. Bularga suyuqlikka gidravlik zarb orqali impuls beruvchi mexanizmlar (gidravlik taran) ham kiradi.

Uchinchi guruhga nasoslar suyuqlikka kinetik energiya berilib, soʻngra u bosim energiyasiga aylantiriladi. Bularga birinchi galda kurakli (markazdan qochma, parrakli, ukiy) nasoslar kiradi (ularda ish qismi valda aylanuvchi kurakli gʻildiraklardir), ikkinchidan oqimchali nasoslar (ejektorlar, injektorlar, gidravlik elevatorlar) kiradi (ularda suyuqlikka energiya beruvchi boshqa suyuqlik, gaz yoki bugʻdir).

1.2. NASOSLARNING ISHCHI VA UNIVERSAL HARAKTERISTIKALARI


Nasosning ishchi harakteristikasiga bog‘liqligi quyidagicha belgilanadi.

$$H, N, \eta = f(Q)$$



1-rasm. Markazdan qochma nasos ishchi harakteristikasi

Nasoslardan foydalanishda turli aylanishlar sonilar n uchun umumlashtirib tuzilgan universal harakteristikalardan foydalaniladi. Yuqorida aytilganlar 1.2.1-rasm va 1.2.2-rasmlarda ko‘rsatilingan.



2-rasm. Markazdan qochma nasosning universal harakteristikasi

1.3. TEZYURARLIK KOEFFITSIYENTI

Markazdan qochma va o'qiy nasoslarning o'lchamlarini hamda aylanish sonini o'zgartirish yo'li bilan ularning Q , H va N parametrlarni juda keng chegaralarda erishish mumkin.

Tezkorlik koeffitsiyenti n_s deb, shunday aylanish soniga aytiladiki, u $H = 1\text{m}$ da nasos berayotgan uzoqlikka 0,735 kVt gacha teng energiya berishga imkon beradi.

$$n_s = 3,65 \cdot n \cdot \frac{\sqrt{Q}}{H^{3/4}}. \quad (1.1)$$

Nasos unumdorligi Q ni turli o'zgartirish usullari qo'llaniladi:

1. Quvur yo'li harakteristikasini o'zgratirish;
2. Suyuqlikning bir qismini haydash quvuridan so'rish quvuriga qo'yish.
3. Nasos harakteristikasini o'zgartirish bilan:
4. Nasos ishchi g'ildiragining aylanishlar soni p ni o'zgartirish;
5. Nasos ishchi g'ildiragini qirqish yo'li bilan.

1.4. EYLER TENGLAMASI

Ish g'ildiragi markazdan qochma nasosning asosiy qismini tashkil qilib, uning tuzilishiga asos bo'ladi.

Gidravlikadagi kabi nasos va quvurdagi harakatni ham bir o'lchovli harakatga keltirib, ish g'ildiragidagi suyuqlik massasining harakati elementar oqimcha harakati kabi qaraladi.


Dinamik gidromashinalar uchun (markazdan qochma nasos) 1755 yil Eyler tomonidan tenglama olingan bo'lib, dinamik mashinalar nazariyasida asosiy tenglama deb yuritiladi.

Bu tenglama ikkita masalani hal qilishga yordam beradi:

1. berilgan sarf va hosil qilinishi kerak bo'lgan bosim bo'yicha g'ildiragi soni va uning o'lchamlarini topish;
2. berilgan ish g'ildiragi va valning aylanish soni bo'yicha sarf va hosil bo'ladigan bosimni hisoblash.

Tenglamani chiqarishda esa:

1. kuraklarning cheklanishi hisobiga olinmaydi;
2. kuraklar orasidagi kanallardan o'tayotgan suyuqliklar bir xil sharoitda oqadi deb qaraladi.



1.4.1-rasm. Ish g'ildirigidan olingan nazariy bosimga doir sxema

\mathcal{G} – absolyut tezlik; U – aylanma tezlik; W – nisbiy tezlik

Ikki kesim oraliqda Bernulli tenglamasi:

$$z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{W_1^2}{2g} = z_2 + \frac{P_2}{\gamma} - H_k + h_{1,2} + \frac{W_2^2}{2g}, \quad (1.2)$$

$h_{1,2}$ – ikki kesim orasidagi gidravlik yo'qotish;

H_k – kanaldagi harakat vaqtida markazdan qochma kuch hisobiga bosimning ortishi. Agar ish g'ildiragingining yuzasi ω , og'irligi G , massasi m bo'lsa, suyuqlik zarrachasiga ta'sir qiluvchi markazdan qochma kuch $m\omega^2 r$ yoki $(G/g)\omega^2 r$ ga teng bo'ladi.

U holda $r_1 - r_2$ masofada bajarilgan ish:

$$A = \int_{r_1}^{r_2} \frac{G}{g} \omega^2 r dr = \frac{G\omega^2}{2g} (r_2^2 - r_1^2). \quad (1.3)$$

$u_1 = \omega_1 r_1$, $u_2 = \omega_2 r_2$ ekanligini hisobga olsak:

$$A = G \cdot \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g}. \quad (1.4)$$

A ni G ga bo‘lib, solishtirma ish yoki H_k ni topamiz:

$$H_k = \frac{A}{G} = \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g}. \quad (1.5)$$

Buni (1.4.4) ga qo‘ysak:

$$z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{W_1^2}{2g} = z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{W_2^2}{2g} - \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g} + h_{1,2} \quad (1.6)$$

$$H_1 = z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{\mathcal{G}_1^2}{2g}$$

$$H_2 = z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{\mathcal{G}_2^2}{2g} + h_{1,2}.$$

Unda:

$$H = H_2 - H_1$$

$$z_1 + \frac{P_1}{\gamma} + \frac{\mathcal{G}_1^2}{2g} = z_2 + \frac{P_2}{\gamma} + \frac{\mathcal{G}_2^2}{2g} + h_{1,2} - H. \quad (1.7)$$

Endi (1.4.5) dan (1.4.6.) ni ayirsak:

$$\frac{\omega_1^2}{2g} - \frac{\mathcal{G}_1^2}{2g} = \frac{\omega_2^2}{2g} - \frac{\mathcal{G}_2^2}{2g} - \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g} + H.$$

Bu tenglamadan H ni topamiz:

$$H = \frac{\omega_1^2 - \omega_2^2}{2g} + \frac{\mathcal{G}_2^2 - \mathcal{G}_1^2}{2g} + \frac{u_2^2 - u_1^2}{2g}. \quad (1.8)$$

Ish g‘ildiragi kanaliga kirish va undan chiqishdagi tezlik parametrlaridan foydalanib:

$$W_1^2 = u_1^2 + \mathcal{G}_1^2 - 2u_1\mathcal{G}_1 \cos \alpha_1$$

$$W_2^2 = u_2^2 + \mathcal{G}_2^2 - 2u_2\mathcal{G}_2 \cos \alpha_2$$

tenglamalar tizimini hosil qilamiz.

Bularni (1.4.7) ga qo‘ysak:

$$H = \frac{u_2\mathcal{G}_2 \cos \alpha_2 - u_1\mathcal{G}_1 \cos \alpha_1}{g} \quad (1.9)$$

ni hosil qilamiz.


Bu tenglama markazdan qochma gidromashinalarning asosiy tenglamasi yoki Eyler tenglamasi deb yuritiladi.

Nasoslar uchun $\alpha_1=90^0$ qabul qilinganda, nazariy napor (markazdan qochma nasosga):

$$H = \frac{u_2\mathcal{G}_2 \cos \alpha_2}{g} \quad (1.10)$$

ko‘rinishda yoziladi. Unumdorlik esa:

$$Q_{naz} = \pi \cdot D_2 \cdot l_2 \cdot \mathcal{G}_{2r} \quad (1.11)$$



3-rasm. Nasosning tezlik parallelogrammi

$$\mathcal{G}_2 \cos \alpha_2 = u_2 - \mathcal{G}_{2r} \operatorname{ctg} \beta_2.$$

Buni (1.10) ga qo‘yib:

$$H = \frac{u_2}{g} (u_2 - \vartheta_{2r} \operatorname{ctg} \beta_2) \text{ ni topamiz.}$$

$$H_{naz} = \frac{u_2^2}{g} \quad \beta_2 > 90^\circ \quad \beta_2 < 90^\circ \quad \beta_2 = 90^\circ \quad Q_{naz}$$


$$\vartheta_{2r} = \frac{Q_{naz}}{\pi \cdot D_2 \cdot l_2}.$$

Buni (1.4.10) ga qo'yib:

$$H_{naz} = A - B \cdot Q_{naz}$$

ni topamiz:

$$A = \frac{u_2^2}{g} \quad \text{va} \quad B = \frac{u_2 \operatorname{ctg} \beta_2}{g \pi D_2 l_2}. \quad (1.12)$$




4-rasm. Har xil burchakli nasosning nazariy harakteristikasi

Markazdan qochma nasos nazariy harakteristikasi kameradan chiqishdagi kurakka bog'liqdir, ya'ni β_2 burchak orqali ifodalanadi.

2. GIDROYURITMALAR, ULARNING TUZILISHI, ISHLASHI VA ASOSIY ELEMENTLARINI HISOBLASH TO‘G‘RISIDA QISQACHA UMUMIY TUSHUNCHALAR


Gidroyuritmalar deganda, mexanik energiyani gidravlik energiyaga aylantiruvchi (gidronasoslar) va aksincha, gidroenergiyani mexanik energiyaga aylantiruvchi gidromotorlardir, kuch gidrotsilindrlari va h.k. mashinalarni, ularni boshqaruvchi va bog‘lovchi elementlarni birgalikda ishlashi tushuniladi. Odatda buning natijasida mexanik ish bajariladi, ya’ni biror mexanizm harakatga keladi.





Gidroyuritmalarning tuzilishi va uning ishlashi blok sxemasi, ya’ni umumlashgan holda berilgan algoritm dasturi orqali ko‘rsatiladi.




5-rasm. Hidroyuritmalarning blok sxemasi

1 – suyuqlik energiya manbai (gidronasoslar); 2 – suyuqlik idishi; 3 – suyuqlik tozalagich; 4 – saqlovchi yopg‘ich; 5 – taqsimlagich (zolotniksimon, jo‘mraksimon, yopqichsimon); 6 – gidrotizim bosimini ko‘rsatuvchi asbob (manometr); 7 – suyuqlik harakat tezligini o‘zgarturuvchi element (drossel, jo‘mrak va h.k.); 8 – suyuqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantiruvchi mashinalar (gidromotor, kuch gidrotsilindrlari va h.k.); 9 – suyuqlik yuruvchi quvurlar (qattiq yoki elastik bo‘lishi mumkin).





6-rasm. Elektrpnevmatik elementlarning shartli belgilari



7-rasm. Taqsimlagichlarning sxematik tasviri

Gidroyuritmalar hajmiy gidromashinalar yordami bilan mexanik energiyani uzatish va o'zgartirish uchun mo'ljallangan. Agar nasos va gidrodvigatel qurilishi bo'linmaydigan birikma tashkil qilsa, unda bunday sodda gidroyuritma hajmiy gidroyuritma deyiladi.

Hozirda metallga ishlov berish stanoklaridan boshlab, murakkab nusxa ko'chirish stanoklarigacha hajmiy gidroyuritma bilan ta'minlangan. Shuningdek, paxta zavodlaridagi gidroresslar ham gidroyuritmalar yordamida harakatga keladi.

Gidroyuritmani nomi gidrodvigatelning turiga qarab aniqlanadi. Gidrodvigatel ishini karakterlaydigan kattaliklarning o'zgarishi suyuqlik sarfini va dvigatel bilan nasosni ulanadigan magistraldagi bosim kattaligini o'zgartirish yo'li bilan boshqariladi.

Gidroyuritmalarning quyidagi ustunliklari mavjud:

1. Ilgarilanma-qaytarma va aylanma harakatlarni tez o'zgartirish imkonini beradi.

2. Kuch organlarining silliq harakat qilishi ta'minlangan tezlik va yuklanish avtomatik boshqariladi.


3. Kichik gabaritlarda ham katta zo‘riqish va quvvat uzatish mumkin.

4. O‘zgarayotgan kuchlarni bosim orqali nazorat qilish manometrlar yordamida oson amalga oshiriladi.

- gidroyuritma kuchlari qurilmasining ish bajaruvchi qismlari harakatini gidravlik boshqarish va uning elektr sxemalari tuzulishini amaliy o‘rganish, bilish va uni mustahkamlash;

- elektr avtomatik elementi qurilmalari bilan tanishish.

Uslubiy ko‘rsatma oddiy “Gidroyuritmalar” sxemalari ba’zi elementlarining hisob tenglamalari keltirilgan. Bu tenglamalardan gidroyuritma elementlarini tanlashda foydalanish ko‘zda tutilgan.



8-rasm. Kuch silindri o‘qining harakat tezligini drossellash yo‘li bilan sozlash gidrotizimining sxemasi

1 – gidronasos qurilmasi: a) gidronasos elektrodvigatel bilan birgalikda; b) suyuqlik tozalovchi elektrofil’tr, 2 – suyuqlikli idish (moy idishi); 3 – manometr; 4 – manometrni ulaydigan zolotnik; 5 – taqsimlagich (VMM0. 547A.31F); 6 – kuch gidrotsilindri ($D=36$ mm, $d=20$ mm, $L=25$ sm); 7 – drossel PG 77-12.

ULARNING HISOB TENGLAMALARI

1. Gidrosilindr o'qining oldinga va orqaga harakat tezligini aniqlash uchun quyidagi tenglamalardan foydalaniladi:


$$g_{old} = \frac{L}{t_{old}}, \text{ (sm/s)}; \quad g_{orq} = \frac{L}{t_{orq}}, \text{ (sm/s)} \quad (2.1)$$

bunda L – silindr o'qining to'liq bosib o'tgan yo'li.

2. Gidrosilindr o'qida (oldinga va orqaga harakat qilayotganda) tenglama hosil bo'ladigan kuch quyidagi tenglamalar yordamida topiladi:

$$M_{old} = p_{ish} \omega_{old}, \text{ (N)}; \quad M_{orq} = p_{ish} \omega_{orq}, \text{ (N)} \quad (2.2)$$

bunda $\omega_{old} = \frac{\pi d^2}{4}$; $\omega_{orq} = \frac{\pi(D^2 - d^2)}{4}$, (sm²) tengdir, $D = 3,6$ sm, $d = 2,0$ sm. ga teng.




9-rasm. Gidroyuritgich o'qini aylanishini o'zgartirish va drossellash usuli bilan tezligini sozlash sxemasi

1 – gidronasos qurilmasi: a). gidronasos elektrodvigatel bilan birgalikda (G 12-31 M); b). suyuqlik tozalovchi element (fil'tri); v). saqlagich yopqichi; 2 – suyuqlik idishi (moy idishi); 3 – manometr; 4 – manometrni ulaydigan zolotnik; 5 – taqsimlagich (VMM 6547 A; 6 – gidroyuritgich (G 15-21 N); 7 – drossel - 1 (PG77-12); 8 – drossel - 2 (MPG 55-32).

Gidroyuritgich aylanish tezligining odatda 1 min. ichidagi yoki 60 sek. ichidagi soni aniqlanadi. Shuning uchun quyidagi tenglamalardan foydalaniladi:

$$n_{ayl} = \frac{n_{st.b}}{t}, \text{ (ayl/min)}; \quad n_{ayl} = \frac{n_{st.ya}}{t}, \text{ (ayl/min)} \quad (2.3)$$

Vaqt birligi ichida silindr ishining boshqarish tizimini hisoblash



10-rasm. Vaqt birligi ichida silindr ishini boshqarish sxemasi

1-pnevmosilindr ($D=26$ mm, yurish yo‘li $L=110$ mm); 2 – pnevmotaqsimlagich (VbZ-11M); 3 – pnevmotaqsimlagich (P-RK-3,2); 4 – vaqtni o‘zgartirib turuvchi pnevmoklapan (P-KVV 4/10).

2.1. GIDRODINAMIK UZATMALAR

Suyuqlik ishtirokida harakat uzatadigan mexanizmlarga gidravlik uzatmalar deyiladi. Qo‘llanish prinsipiga qarab gidrouzatmalar hajmiy va gidrodinamik turlarga bo‘linadi.


Gidrodinamik uzatmalar parrakli gidromashinalar yordamida ishlaydi. Bunda ish g‘ildiraklarining parraklari yordamida suyuqlikka berilgan dinamik bosim energiyasidan foydalaniladi. Gidrouzatmalar ba‘zan turbouzatma deb ham ataladi.

Bunga sabab ularda markazdan qochma nasos va gidravlik turbinalardan birgalikda foydalaniladi.

Gidrodinamik uzatmalar bir oqimli va ikki oqimli bo'lishi mumkin. Bir oqimli gidrodinamik uzatmalarda hamma quvvat gidravlik g'ildiraklar orqali uzatiladi. Ikki oqimli gidrodinamik uzatmalarda esa dvigatel quvvatining bir qismi gidravlik g'ildiraklar orqali, ikkinchi qismi esa mexanik yo'l bilan uzatiladi.

Suyuqlikning yopiq harakati nasos va turbina g'ildiraklaridagi aylanuvchi momentning uzatilishini ta'minlaydi.

Aylanma momentning uzatilish usuliga qarab gidrodinamik uzatmalar: gidromuftalar va gidrotransformatorlarga bo'linadi.




11-rasm. Gidrouzatma

1-nasosning boshqaruvchi vali; 2-markazdan qochma nasos; 3-turbinaning harakat uzatuvchi vali; 4-turbina; 5, 6, 7-quvurlar

Gidravlik uzatmalar katta energiya sig'imiga ega bo'lib, kinetik imkoniyatlari deyarli cheklanmaganligi tufayli ular mashinasozlik texnikasining turli sohalarida keng qo'llaniladi.


Hozirgi vaqtda metallga ishlov beradigan deyarli hamma zamonaviy stanoklar hajmiy gidrouzatma bilan ta'minlangan.

Nasos va turbina g'ildiraklari shtamplangan yarim shar shaklida tayyorlanadi. Nasos va turbina g'ildiraklaridagi kuraklar ko'pincha ichki sirtga radial joylashtirilgan bo'ladi.



- 1) nasos ish g'ildiragi;
- 2) turbina ish g'ildiragi;
- 3) nasos g'ildiragi vali;
- 4) turbina g'ildiragi vali;
- 5) nasos g'ildiragi yarim korpusi;
- 6) turbina g'ildiragi yarim korpusi;
- 7) yarimtor.

12-rasm. Hidromuфта



13-rasm. Hajmiy gidrouzatma: 1. nasos porsheni; 2. kuch silindrining porsheni; 3, 4, rostlagich jo'mraklar

Gidromuфтalar uzatish soni 1 ga teng bo'lgan gidrouzatmalarda ishlatiladi. Agar uzatish soni 1 dan farqli bo'lishi zarur bo'lsa, u holda har xil o'lchamli nasos va turbina qo'llaniladi.

Bunda turbina va nasoslarning o'ldamlari har xil bo'lgani sababli yo'naltiruvchi apparat qo'llash zarur bo'ladi. Bunday uchta g'ildirakli qurilmaga gidrotransformator deyiladi.

Mashinalar orasida mexanik energiyani uzatish zaruriyati tug'ilganda ularning karakteristikalari to'g'ri chiziqli bo'lmaydi, natijada mashinalar tejjamsiz rejimda, zo'riqib yoki to'la yuklanmasdan ishlaydi.

Gidrouzatmalardan dvigatellarni xavfli zo'riqishdan saqlashda va turli mashinalarda aylanishlar sonini o'zgartirishda foydalaniladi. Sozlanmaydigan gidromuftalar burovchi momentlarni ravon uzatish yo'li bilan mashinalarni xavfli zo'riqishdan saqlashda ishlatiladi. Sozlanadigan gidromuftalar esa saqlagich vazifasini bajarishdan tashqari, turli mashinalarning aylanish sonini sozlashga ham yordam beradi.

Gidrotransformatorlar o'zgaruvchan tok elektr dvigatellari, gaz turbinalari, ichki yonuv dvigatellari va dizel dvigatellari bilan uyg'unlashgan holda ishlatiladi.

2.2. GIDROUZATMALARNI HISOBLASH PRINSIPLARI

Kurakli gidrouzatmalarning, xususan, gidromufta va gidrotransformatorlarning vazifasi harakat momentini uzatishdan iborat bo'lgani uchun ularda asosiy parametrlar bo'lib momentlar va aylanishlar soni xizmat qiladi.

Yetaklanuvchi val momenti M_2 ning yetaklovchi val momenti M_1 ga nisbatan transformatsiya koeffitsiyenti deyiladi:

$$K = \frac{M_2}{M_1}. \quad (2.4)$$

Gidromuftalarda transformatsiya koeffitsiyenti $K=1$. Aylanishlar sonining nisbati uzatishlar soni deyiladi:

$$i = \frac{n_2}{n_1} = \frac{n_t}{n_N}. \quad (2.5)$$

To'g'ri uzatuvchi transformatorlar uchun $i \leq 5$. Gidroyuritmaning to'liq foydali ish koeffitsiyenti:

$$\eta = \eta_{tes} \cdot \eta_{gidr} \cdot \eta_{m.motor} \cdot \eta_{m.nasos}, \quad (2.6)$$

bu yerda η_{tes} - teskari uzatuvchi gidrotransformatorning F.I.K;

η_{gidro} - gidromuftaning F.I.K.

$\eta_{m.motor}$ - mufta motorining F.I.K.

$\eta_{m.nasos}$ - mufta nasosinig F.I.K.

To‘g‘ri uzatuvchi gidrotransformatorlarning F.I.K. $\eta=0,9$, teskarisniki esa $\eta=0,65$ ga teng. Gidromuftalarning F.I.K. $\eta=0,98$ ga teng.

Momentlar nisbatida mexanik yo‘qotishdan boshqa barcha yo‘qotishlar hisobga olingani uchun:

$$\eta_2 = \frac{M_2}{M_1} \cdot \frac{n_2}{n_1} = K \cdot i \quad (2.7)$$

Gidromuftalarda $K = 1$ bo‘lgani sababli $\eta_{gid} = i$.

Yetakchi va yetaklanuvchi vallar aylanish sonlari ayirmasining yetakchi va aylanish soniga nisbati gidromuftaning sirpanishi deyiladi:

$$S = \frac{n_1 - n_2}{n_1} = 1 - \frac{n_2}{n_1} = 1 - i = 1 - \eta_g \quad (2.8)$$

Gidromuftaning FIK nasos hamda turbina g‘ildiragining bosimi va sarfi orqali taxminan aniqlanishi mumkin:

$$\eta_{ichki} = \frac{Q_2 \cdot H_2}{Q_1 \cdot H_1} \approx \eta_{ayl} \cdot \eta_g \quad (2.9)$$

bu yerda $Q_2 = Q_1 - \Delta Q$, $H_2 = H_1 - \Delta H$.

Gidrotransformatorning to‘liq foydali ish koeffitsiyenti turbina g‘ildiragi validagi quvvat N_t ning nasos g‘ildiragi validagi N_n quvvatga nisbatidan topiladi:

$$\eta = \frac{N_t}{N_n}$$

bunda,

$$N_n = \frac{\gamma Q H_n}{1000 \cdot \eta_n \cdot \eta_a} \quad (2.10)$$

η_a – yo‘naltiruvchi apparatning FIK.i;

η_n – nasos g‘ildiragining to‘liq FIK.i.


$$N_t = \frac{\gamma Q H_n}{1000} \cdot \eta_t \quad (2.11)$$

2.3. HAJMIY NASOSLAR VA GIDRODVIGATELLAR

Hajmiy nasoslar – porshenli va rotorli guruhlarga bo‘linadi va bosim ostida suyuqlikni uzatish uchun xizmat qiladi, gidrodvigatellar esa suyuqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantiradi.

Bunday nasoslar dinamik nasoslarga nisbatan ish unumdorligining bir birlik vaqt ichiga notekisligi bilan xarakterlanadi. Shuning natijasida bu nasoslarda gidravlik zarba hodisasi yuzaga kelishi mumkin.

Ko‘pchilik nasoslarda (shesternali, plastinkali) unumdorlikning (Q ning) notekisligi unchalik emas. Lekin porshenli nasoslarda unumdorlikning (Q ning) notekisligi havo qo‘shimcha idish (sig‘im) larini o‘rnatishga olib keladi.



14-rasm. Hajmiy nasosning nazariy va amaliy harakteristikasi

Bu sig‘im, unumdorlikni (Q ni) to‘g‘rilab, unumdorlik (Q) va napor (H) ni hajmiy nasoslar uchun keltirilgan formulalardan foydalanishga yordam beradi.

Hajmiy nasoslarda unumdorlik (Q) naporga (bosimga) bog‘liq emas. Hajmiy nasoslar uchun nazariy va haqiqiy napor karakteristikalar ko‘rinishi, 14-rasmda berilgan.

Haqiqiy va nazariy geometrik unumdorlik Q bir-biri bilan quyidagicha bog‘langan:

$$\text{Nasosga:} \quad Q_{\text{xaq}} = \eta_{\text{um}} \cdot Q_{\text{naz}} \quad (2.12)$$

$$P_{\text{max}} \quad n = \text{const} \quad P \quad Q \quad Q_t \quad Q$$

$$\text{Gidrodvigatelga:} \quad Q_x = \frac{Q_{\text{naz}}}{\eta_{\text{um}}} \quad (2.13)$$

$$Q_N = q_N \cdot n, \quad q_N = z \cdot q_{1N} \quad (2.14)$$

Gidrodvigatel validagi quvvat:

$$N_d = P \cdot Q_x \cdot \eta \quad (2.15)$$

Nasos quvvati:

$$N_N = \frac{Q \cdot P}{\eta} \quad (2.16)$$

$$N_d = \frac{P \cdot v}{102} \quad (2.17)$$

$$N_d = \frac{M_d \cdot \omega_d}{102} \quad (2.18)$$

$$M_d = \frac{Q \cdot \eta_d \cdot P}{\omega_d} \quad (2.19)$$

$$M_N = \frac{Q \cdot P}{\eta_N \cdot \omega_N} \quad (2.20)$$

$$PQ = \eta_N \cdot M_N \cdot \omega_N \quad \text{nasos uchun,} \quad (2.21)$$

$$PQ \cdot \eta_d = M_d \cdot \omega_d \quad \text{gidrodvigatel uchun.} \quad (2.22)$$

Bu yerda Q_x - hisobiy sarf; Q_{naz} - nazariy sarf; η_{xaj} - hajmiy FIK;

Q_{naz} - solishtirma nazariy sarf;

n - aylanishlar soni;

N_d - gidrodvigatel quvvati;

N_N - nasos quvvati;

P - porshenning foydaliy kuchlanishi;

M_d - gidrodvigatelning aylanuvchi momenti;

M_N - nasosning aylanuvchi momenti;

η_d - gidrodvigatel FIK.i;

η_N - nasosning FIK.i;

\mathcal{G} – porshen tezligi;

ω_d - gidrodvigatel valining burchak tezligi;

ω_N - nasos valining burchak tezligi.

2.4. PORSHENLI NASOSLAR

Porshenli nasoslar suv va boshqa suyuqliklarni uzatish uchun xizmat qiladigan eng oddiy hajmiy nasoslardir.

Agar individual diagramma pulsini porshenning yurish yo‘li uzunligiga $\int \rightarrow S_0$ bo‘linsa, o‘rtacha individual bosim P_i topiladi. Bu bosimga to‘g‘ri kelgan quvvatni indikator quvvat deyiladi:

$$N = \frac{P_i \cdot \Omega_n \cdot S_0 \cdot n}{60 \cdot 102} \quad (2.23)$$

n – aylanishlar soni (1 minutda).


Porshenli nasos unumdorligi:

$$Q = q \cdot n = \eta_0 \cdot \frac{\pi D^2}{4} \cdot S_0 \cdot n \quad (2.24)$$

bu yerda D – porshen diametri; η_0 – hajmiy FIK.i.

$$\eta_0 = \frac{Q}{Q_T} \quad (2.25)$$

Porshenli nasosning yaxshi fazilatlaridan biri – suyuqlikni o‘zi so‘rish qobiliyatidir. Bu nasoslar ishga tushirilganda so‘rish trubkasidan havoni tortib oladi va oldindan suv solishga xojat yo‘q. Bu nasoslarda unumdorlik Q - notekis. Shuning uchun bu nasoslarda havoli kalpaklar, ko‘p porshenli, differensial va boshqa qurilmalar ishlatilib Q ni bir xil bo‘lishga erishiladi.



15-rasm. Birlamchi harakatli porshenli nasos sxemasi:

1- porshen; 2- silindr; 3- ishchi kamera; 4- so‘rish klapani; 5- haydash klapani; 6- krivoship; 7- shatun; C_d – so‘rish jarayoni; ab – haydash jarayoni.

$$h_s \leq \frac{P_x}{\gamma} - \frac{P_{nas}}{\gamma} - \frac{g_s^2}{2g} - h_{n.s} - h_{in}$$

$$h_{ip} = a \cdot l_s \cdot \frac{D_p^2}{g \cdot d_s^2} \quad (2.26)$$

$a = r\omega^2 \cos \varphi$ - porshen tezlanishi;

D_p – porshen diametri;

l_c va d_c – so‘rish quvuri uzunligi va diametri;


ω - burchak tezlik.

2.5. SHESTERNYALI NASOSLAR VA GIDRODVIGATELLAR

Shesternyali nasoslar gidrouzatmalarda keng qo‘llaniladi. Bunda ular asosan moylashda ishlatiladi.

Eng yaxshi xususiyatlaridan biri – shesternyali nasos chidamliligi, konstruksiyasining soddaligi, yuqori foydali ish koeffitsiyenti, ixchamligi va og‘irligining kamligidir.

Shesternyali nasos – ichki va tashqi tishlashadigan qilib tayyorlanadi va bir korpusda bir necha shesternya bo‘lishi mumkin.



16-rasm. Shesternyali nasos

$$q_t = \pi \cdot D_N \cdot 2mb - \text{nasosning ish hajmi}$$

$$Q_t = 2\pi \cdot D_N \cdot m \cdot b \cdot n - \text{o'rtacha so'rishi}$$

bunda m – tishlashish moduli;

D_N – shesternalarni boshlang‘ich aylanish diametri;

n – shesternalar aylanishlar soni;

$2m$ – tish balandligi;

b – tish uzunligi.

m - tish moduli


$$m = \frac{D_N}{z}$$

z – tishlar soni.

$$Q_d = \eta_0 \cdot Q_t$$

2.6. ROTORLI, RADIAL-PORSHENLI GIDRAVLIK MASHINALAR

Bitta silindrli porshen-nasoslar unumdorligi juda notekisdir. Bir tekis Q ni ko'p silindrli porshenli mashinalar orqali olish mumkin. Bunday mashinalar bitta blokka joylashadi va birin-ketin porshenlar aylanma harakat qilib ishlaydi. Bunday ko'p silindrli porshenli gidromashinalarni rotor-porshenli deb ataladi. Agar blokda silindrlar radial joylashgan bo'lsa, ularni radial-porshenli gidromashinalar deyiladi.



- 1-rotor;
- 2-stator;
- 3-porshenlar;
- 4-taqsimlovchi qism;
- 5 va 6 so'rish va haydash klapanlari

17-rasm.
Rotorli radial-porshenli gidravlik mashina

$$Q_t = \frac{\pi d^2}{4} \cdot z \cdot i \cdot m \cdot 2l \cdot n$$

$$Q_t = \frac{\pi d^2}{4} \cdot z \cdot i \cdot 2l \cdot u_1 \cdot n$$

d – porshen diametri;

z – porshenlar soni;

i – porshenlar qatori soni;

m – bir aylanishda porshen hadi soni;

n – nasos va uning aylanish soni;

$U_l=l/l_{max}$ – rostlash parametri

2.7. GIDRODVIGATELLAR, GIDROSILINDRLARNING ASOSIY HISOBLASH FORMULALARI

Hajmiy gidrodvigatellar aylanma yoki ilgarilanma-qaytma harakatlanadigan bo‘lsa, ularni gidrosilindrlar deyiladi.

Mashinasozlikda, qurilishda va sug‘orish mashinalarida har xil gidrosilindr konstruksiyalari ishlatiladi.

Konstruksiyasiga nisbatan ular porshenli, plunjerli, membranli va sifonli xillarga bo‘linadi.

Gidrosilindrlar uchun quyidagi asosiy parametrlar ishlatiladi:

- nominal bosim – P_N – MPa;
- gidrosilindr diametri – $D_{gid.sil}$ – mm;
- shtok diametri – d_{shit} – mm;
- porshen yo‘li – D - mm
- gidrosilindr massasi – m – kg.

Porshenning ichki yuzasi S_p (m^2):

$$S_{1\delta} = \frac{\pi D^2}{4} \quad (2.27)$$

$$S_{2p} = \frac{\pi}{4} (D_p^2 - d_{shit}^2) \quad (2.28)$$

Shtokdagi nazariy kuch (ishqalanish va inersiya kuchlari):

$$P = \Delta P \cdot S_n \quad (2.29)$$

$$\Delta P = P_1 - P_2$$

$$P_{fak} = P_{st} + R_{ish} + R_{in} \quad (2.30)$$

R_{tig} – tig‘izlovchi moslamalarga bog‘liq;

$R_{\text{in}} = \max$ – oqimning tez va sekinlashishida paydo bo‘ladi;

m – harakatlanayotgan qism massasi, ishchi suyuqlik massasi bilan.

Shtokning bir tekis harakatida $R_{\text{in}} = 0$.

$$\text{Unda} \quad P_{\text{fak}} = P_{\text{naz}} \cdot \eta_{\text{mex}} \quad (2.31)$$

$$\eta_{\text{mex}} = 0,8 \div 0,95$$

Shtokning harakatlanish tezligi:

$$v = \frac{Q}{S_{\delta}} \quad (2.32)$$

bu yerda Q – ishchi suyuqlik sarfi; S_{δ} – porshen ishchi yuzasi.

Nazariy quvvat silindr uchun:

$$N_{\text{naz}} = \Delta P \cdot S_p \cdot v, \quad (\text{Vt}) \quad (2.33)$$

$$\text{Pa} \cdot \text{m}^2 \cdot \text{m/s} = \text{Pa} \cdot \text{m}^3/\text{s} = (\text{N} \cdot \text{m})/\text{S} = \text{Vt}$$

Qarshilikka sarflanadigan quvvat:

$$N_{\text{ihsq}} = P_{\text{ihsq}} \cdot v \quad (2.34)$$

Silindr nominal quvvati:

$$N = N_{\text{naz}} - N_{\text{ihsq}} \quad \text{FIK:}$$

$$\eta = \frac{N}{N_{\text{naz}}} = 1 - \frac{P_{\text{ihsq}}}{P} \quad (2.35)$$

Ikkinchi titil:

«Gidravlika va gidroenergetika» kafedrası:

20 yil «.....»

Kurs ishi

Kurs mavzusi

Guruh :

Variant № _____

Topshiriqlar:

1. Bajariladigan asosiy ishlar.

2. Boshlang'ich ma'lumotlar

3. O'quv qo'llanma

4. Grafik qismining tuzilishi

5. Kurs ishini topshirish davri

Kurs ishini oldim sana	Imzo	Maslahatga keldim sana	Imzo	Himoya qildim sana
1	2	3	4	5

Fan o'qituvchi: _____

Toshkent 201 _____

DASTLABKI MA'LUMOTLAR

1. Quvurlarning gidravlik hisobi;
2. Quvurlarning gidravlik karakteristikalarini qurish;
3. Nasos tanlash;
4. Markazdan qochma nasosni ishini boshqarish;
5. So'rish balandligini mumkin bo'lgan chegarasini aniqlash;
6. Nasos qurilmasini tashkil etish.

BIBLIOGRAFIK RO'YXAT Dastlabki asosiy ma'lumotlar

SUYUQLIK		
Unumdorlikni hisobi	$Q_P, m^3 / soat$	90
Qovushqoqlik	$\nu, sm^2 / s$	0,025
Zichlik	$\rho, kg / m^3$	810
To'yingan bug' bosimi	$P_{T.bug}, kPa$	3,44
QABUL QILINGAN SURISHDAGI QUVUR TIZIMI		
Uzunlik-so'rish balandligi	$L_{so'r}, m$	16,0
Geometrik so'ruvchi balandlik	$H_{G.so'r.bal}, m$	+5,0
Mahalliy qarshiliklar koeffitsiyentlarini yig'indisi	$\sum \xi_{so'r}$	4,2 <small>$h_{so'r} = 3,0m$</small>
Qabul qiluvchi idishdagi bosim	P_0, Pa	10^5
HAYDASHDAGI NAPORLI QUVUR TIZIMI		
Uzunlik	$L_{N.xay}, m$	3000
Geometrik balandlik	$H_{G.bal}, m$	80
Mahalliy qarshilik koeffitsiyentlarini yig'indisi	$\sum \xi_{xay}$	20
Haydash bosimi	P_{xay}, MPa	0,18

3. QUVURNING GIDRAVLIK HISOBI

Texnikada, mashina mexanizimlarida, quvur qurilmalari va nasoslarni loyihalash amaliyotida quvurlar diametrini tanlash nasos uskunalarini joy-joyiga qo'yish, iqtisodiy tomondan kam xarajatli bo'lishini ta'minlash elektr energiyani tejash kerakligini e'tiborga olgan holda gidravlik hisob ishlari bajarilishi kerak.

So'rish va haydash quvurlarining diametrlarini d_{xay} va $d_{so'r}$ aniqlash uchun V_{xay} , $V_{so'r}$ o'rtacha tezliklarni hisobga olinadi:

Bunda qovushqoq suyuqliklar ($\nu > 0,1 \text{ sm}^2/\text{s}$): neft, yengil va og'ir yog'lar, uchun quyidagicha tezliklar tanlanadi.

$$V_{xay} = 0,5 \dots 1,0 \text{ m/s},$$

$$V_{so'r} = 0,2 \dots 0,8 \text{ m/s};$$

3.1. HAYDOVCHI VA SO'RUVCHI QUVURLARNING ICHKI DIAMETRLARINI HISOBLASH UCHUN QUYIDAGI FORMULALARDAN FOYDALANILADI

$$d'_{xay} = \sqrt{\frac{4 \cdot Q_P}{\pi \cdot V_{xay}}}; \quad d'_{so'r} = \sqrt{\frac{4 \cdot Q_P}{\pi \cdot V_{so'r}}}; \quad (3.1)$$

$$d'_{xay} = \sqrt{\frac{4 \cdot Q_P}{\pi \cdot V_{xay}}} = \sqrt{\frac{4 \cdot \frac{90}{3600}}{3,14 \cdot 1,5}} = 0,15 \text{ m}$$

$$d'_{so'r} = \sqrt{\frac{4 \cdot Q_P}{\pi \cdot V_{so'r}}} = \sqrt{\frac{4 \cdot \frac{90}{3600}}{3,14 \cdot 1,5}} = 0,15 \text{ m}$$

Hisoblashda hosil bo'lgan miqdorlarning, o'rtacha qiymatlarini olib ularni d'_{xay} va $d'_{so'r}$ larga moslab ishlab chiqarishdagi quvurlar diametrlari

uchun yaxlitlanadi shunday qilib V_{xay} va $V_{so'r}$ tezliklar mumkin bo'lgan tezliklarga mos bo'lishini ta'minlanadi. Masalan $d_{xay} = 159 \text{ mm}$ tanlab olmamiz devor qalinligi $5 \text{ mm} \Rightarrow d'_{xay} = 150 \text{ mm}$, $d_{so'r} = 159 \text{ mm}$ devor qalinligi bilan $5 \text{ mm} \Rightarrow d'_{xay} = 150 \text{ mm}$. quyidagicha bo'lsin:

3.2. QUVURNING GIDRAVLIK XARAKTERISTIKASINI QURISH

